
JAVPAYA MASSIVIGA VILOYAT HOKIMI O'RINBOSARI VA RESPUBLIKA VAKILLARI YANGI KO'CHATLAR O'TQAZISHDI



Javpaya massiviga viloyat hokimi o'rinbosari va respublika vakillari yangi ko'chatlar o'tqazishdi

Bahor fasli kelishi bilan yurtimizda mehnat va ish pallasiga navbat beriladi. Tabiat uyg'onadi va bu barchamizni mehnat sari chorlaydi.

Nihol o'tqazib, ko'chat ekishdek xayrli amallar ota-bobolarimizdan bizga yetib kelgan azaliy va umrboqiy qadriyat. Bunday xayrli ishlar Respublkamizda jadallik bilan olib borilyapti.

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan ezgu tashabbus - "yashil makon" umumimilliy loyihasi mana shu an'ana va udumlarning manguligiga dalolatdir. Tumanimizda ushbu yo'nalishda arzirli ishlar amalga oshirilayotir.

Tumanimizga Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Jamshed Hatamov boshchiligida bo'lib turgan ishchi guruh Javpaya massivida bo'ldilar va mehmonlar tomonidan Javpayaga yangi ko'chatlar o'tqazildi. Mazkur xayrli amallarda tuman hokimi va tuman sektorlari rahbarlari ham ishtirok etdilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-03-04 15:59:52